

O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

2025-yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumot

- I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot
- II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
- III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi
- IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi
- V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VI. Transfertlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi
- VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr holatiga aholining umumiy daromadlari **1 134,3 trln** so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari

2025-yil yanvar-dekabr

	Hajmi	Nominal o'sish sur'ati, % da	Real o'sish sur'ati, % da
Aholining umumiy daromadlari, trln so'm	1 134,3	118,9	109,2
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, mln so'm	29,9	116,6	107,2

2025-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar **29,9** mln so'mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati **116,6 %** ni va real o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

[Aholi umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida, aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar bo'yicha Toshkent shahri (**73 910,5** ming so'm), Navoiy (**44 694,2** ming so'm), Buxoro (**35 176,2** ming so'm) va Xorazm (**31 136,0** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Aksincha Qoraqalpog'iston Respublikasi (**20 656,0** ming so'm) hamda Namangan (**21 304,6** ming so'm), Surxondaryo (**22 572,2** ming so'm), Jizzax (**22 907,4** ming so'm), Sirdaryo (**23 339,5** ming so'm), Qashqadaryo (**23 517,5** ming so'm), Samarqand (**24 471,0** ming so'm), Farg'ona (**24 582,7** ming so'm), Andijon (**26 275,9** ming so'm) va Toshkent (**29 830,9** ming so'm) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo'yicha o'rtacha respublika darajasidan quyi ko'rsatkichlar qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi *2025-yil yanvar-dekabr*

	Hajmi, ming so'm	Real o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	29 935,5	107,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20 656,0	103,8
Andijon	26 275,9	100,6
Buxoro	35 176,2	108,0
Jizzax	22 907,4	105,0
Qashqadaryo	23 517,5	108,5
Navoiy	44 694,2	107,1
Namangan	21 304,6	105,7
Samarqand	24 471,0	106,2
Surxondaryo	22 572,2	106,5
Sirdaryo	23 339,5	106,7
Toshkent	29 830,9	104,4
Farg'ona	24 582,7	114,8
Xorazm	31 136,0	108,7
Toshkent sh.	73 910,5	108,5


Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Farg'ona (**14,8 %**), Xorazm (**8,7 %**) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (**8,5 %**) va Qashqadaryo (**8,5 %**) viloyatida kuzatildi.

Shu bilan birga Navoiy (7,1 %), Sirdaryo (6,7 %), Surxondaryo (6,5 %), Samarqand (6,2 %), Namangan (5,7 %), Jizzax (5,0 %), Toshkent (4,4 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,8 %) va Andijon viloyatida (0,6 %) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 60,4 % i) shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,7 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 3,3 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 29,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi 2025-yil yanvar-dekabr



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi](#)


Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (77,9 %) kuzatildi. Aksincha, Farg'ona, Samarqand, Xorazm, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida hamda Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Respublika bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning

ulushi sezilarli darajada bo'lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi **22,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Farg'ona, Xorazm, Samarqand, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi umumiy daromadlariga nisbatan **30 %** dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya'ni, **13,6 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi
2025-yil yanvar-dekabr



IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari **26,4 %** ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **120,3 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,3 %** ga o'sishini ta'minladi.

Hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Navoiy viloyatida yollanma ishchilar daromadlarining aholi umumiy daromadlariga nisbatan ulushi sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Jami yollanma ishchilar daromadlarining hududlar bo'yicha taqsimoti va umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi
2025-yil yanvar-dekabr

	Jami yollanma ishchilar daromadlarida hududlarning ulushi, % da	Umumiy daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi, % da	Yollanma ishchilar daromadlarining umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, % da
O'zbekiston Respublikasi	100,0	26,4	5,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,7	26,1	3,8
Andijon	6,2	20,2	4,8
Buxoro	4,3	17,4	2,8
Jizzax	2,7	22,3	4,3
Qashqadaryo	5,1	17,5	3,4
Navoiy	6,3	38,3	7,1
Namangan	4,2	18,5	3,2
Samarqand	6,1	17,0	3,3
Surxondaryo	3,7	16,6	2,9
Sirdaryo	2,0	27,2	5,6
Toshkent	8,8	28,7	4,9
Farg'ona	6,1	17,7	2,8
Xorazm	3,5	16,2	2,5
Toshkent sh.	37,3	48,4	11,4

V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **116,2 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,6 %** ga o'sishini ta'minladi. Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida **51,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **115,0 %** ni tashkil etdi.

Xuddi shunday Toshkent viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **43,9 %** ni va o'sish sur'ati **115,9 %** ni tashkil etdi va Buxoro viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **43,9 %** ni va o'sish sur'ati **116,8 %** ni tashkil etdi.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan
daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi**
2025-yil yanvar-dekabr

	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati, % da	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	116,2	34,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	114,7	35,4
Andijon	109,7	37,2
Buxoro	116,8	43,9
Jizzax	115,0	51,6
Qashqadaryo	117,1	42,1
Navoiy	115,9	39,6
Namangan	117,3	41,9
Samarqand	115,4	36,7
Surxondaryo	116,6	42,6
Sirdaryo	117,1	40,0
Toshkent	115,9	43,9
Farg'ona	117,7	33,7
Xorazm	117,4	38,0
Toshkent sh.	121,8	10,7

**VI. Transfertlardan olingan daromadlarning
o'sish sur'ati va ulushi**

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **123,2 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **29,6 %** ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning **29,1 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, **70,9 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulush – **83,8 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar **14,4 %** ni, stipendiyalar **1,8 %** ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi

2025-yil yanvar-dekabr

Farg'ona	32,5 %	Namangan	22,8 %
Xorazm	31,1 %	Qoraqalpog'iston Resp.	18,3 %
Andijon	30,0 %	Toshkent sh.	13,8 %
Samarqand	28,8 %	Sirdaryo	13,1 %
Surxondaryo	26,7 %	Jizzax	9,7 %
Buxoro	24,5 %	Toshkent	6,2 %
Qashqadaryo	24,5 %	Navoiy	5,3 %


VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi

2025-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **58,0 %** ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (**66,6 %**), Buxoro (**64,2 %**), Toshkent (**63,5 %**), Namangan (**61,9 %**), Xorazm (**61,5 %**), Surxondaryo (**61,0 %**), Qashqadaryo (**60,9 %**) va Samarqand (**60,1 %**) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi. Toshkent shahrida (**48,9 %**) ellik foizdan kam ulushni tashkil etdi.

Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi

2025-yil yanvar-dekabr



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi \(hududlar bo'yicha\)](#)

VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Milliy statistika qo'mitasi hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda Jahon banki tomonidan tavsiya etilgan metodologiya asosida olingan uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy bank, Xalq banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq ravishda, qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromad, qoidaga ko'ra "birlamchi daromad" va "transfertlardan olingan daromadlar"ga bo'linadi, bu o'z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institutsional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Metama'lumot uchun havola:

[Aholi umumiy daromadlari](#)

[Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi statistikasi va
kambag'allikni baholash boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Bog'lanish uchun: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (12-61)

